Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1139
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1146
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1150
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1157
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1162
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1171
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1176
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY JIHATLARINI TOKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Samandarova Dilfuza Mansurovna

“BMCA Uzbekistan” Bosh direktori, BMA 2-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarining o‘ziga xos yo‘nalishlari ochib berilgan. Mamlakatning tarixiy-madaniy turizmni rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar PEST tahlili asosida o‘rganilgan. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollarini takomilllashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, tarixiy-madaniy turizm, tarixiy yodgorlik, statistika, madaniy meros, turistik mahsulot, qayta tiklash.

Abstract: An article in the article that the socio-economic aspects of the tourism industry in Uzbekistan are revealed. Factors affecting the development of historical and cultural tourism are studied on the basis of analysis of pests. Practical proposals and recommendations for improving the possibilities and prospects for the development of historical and cultural tourism.

Key words: tourism, tourist, historical and cultural tourism, historical monument, statistics, cultural heritage, tourist product, restoration.

Аннотация: Статья в статье о том, что социально-экономические аспекты туристической индустрии в Узбекистане раскрываются. Факторы, влияющие на развитие исторического и культурного туризма, изучаются на основе анализа вредителей. Практические предложения и рекомендации по улучшению возможностей и перспективы развития исторического и культурного туризма.

Ключевые слова: туризм, турист, историко-культурный туризм, исторический памятник, статистика, культурное наследие, туристический продукт, реставрация.

KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Avvallari turizmga aholining sayohat qilishi va dam olishini ta‘minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo‘lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta e‘tibor berilmoqda. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko‘p sohalarini qamrab oladi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xalq iste‘moli mollarini ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – turizm industriyasidir. Turizm – bu ish-bilarmonlik sohasining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib xorijiy turistlar doimiy oqimini jalb qiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Turizm industriyasi jahon xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi.

Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5 %ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10 % aholi turizm sohasida band. COVID–19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talafot ko‘rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda xalqaro turizm 72 % ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990-yil darajasiga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd. dollar miqdorida eksport daromadlari yo‘qotildi ^[12].



Ma'lumki, 2020-yil 16-martdan mamlakatimiz tashqi va ichki turistlar uchun yopilgan edi. Oqibatda 1,5 mingdan ortiq turoperator, 1,2 mingta mehmonxona o'z faoliyatini to'xtatdi. Bular, gidlar, milliy hunarmandchilik, ziyoratgoh va sihatgohlar, umumiy ovqatlanish, transport va boshqalar bilan qo'shib hisoblaganda 250 mingdan ortiq aholi daromadiga jiddiy ta'sir qildi [14].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash kerakki, turizm infratuzilmasini tashkil qiluvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish borasida ko'plab mualliflar o'rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo'lgan tadqiqotlarning ko'lami keng bo'lib, turizm tarmoqlari rivojlanishini ta'minlashimizda xalqaro tajribalarni ham hisobga olishimiz lozim.

M.Christopher va boshqalarning fikr bildirishicha hozrgi kunda turizm sektorning tobora kuchayib borayotgan raqobat xarakterini hisobga olgan holda, soha mutaxassislari endi nafaqat bozor ulushini oshirish, balki mavjud mijozlar bazasini qondirish va saqlab qolish haqida o'ylashlari kerak hamda, mehmonlar yuqori sifatli, pulga baholi xizmatlarni olishlariga ishonchlari komil bo'lgan mahsulotlarni talab qilishadi. Binobarin, tashkiliy sa'y-harakatlarning katta qismi hozir mijozlarni olish va saqlashga qaratilgan bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

Biroq barcha korxonalar va turizm sohalari bugungi turizm bozorida sifat omilining ahamiyatini bilishmaydi va xalqaro turizm sektorida xizmatlarning samarasizligi va yomon standartlar keng tarqalgan. Xizmatlar sohasida ko'plab ilmiy ishlar olib borgan olim O. Nilning fikricha, bugungi kunda turizm bilan bog'liq ko'pchilik korxonalarda zamonaviy mijoz sifatni o'z huquqi sifatida talab qilmoqda. Endi joylashuvning eski aksiomasi darhol daromad va biznes muvaffaqiyatini ta'minlash uchun yetarli emas, turizmning kelajagi xizmatlar sifatga bog'liq bo'lib bormoqda, deb xisoblaydi.

O.Nil izlanishlari natijasida shu ayon bo'ldiki, hozirgi kunda sayyohlik operatorlari har qachongidan ham ko'proq shikoyat qilish va sifatli xizmatlarni taqdim etuvchi provayderlarga o'z sadoqatlarini o'tkazishga intiluvchi aqlli jamoatchilikka xizmat qilishlari kerak. Bu hozirgi ishbilarmonlik muhitining tobora dushman tabiati bilan bir qatorda, turizm sektoridagi ko'pchilikni raqobatbardosh farqlanishga erishish vositasi sifatida yuqori darajadagi xizmatlar sifatini ta'minlashga sarmoya kiritishga majbur qildi.

C.Elliottning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, xizmat sifati mijozlar tomonidan xizmatning umumiy bahosi sifatida ta'riflangan, bu xizmat mijozning ehtiyojlari yoki kutishlariga qanchalik mos kelishini aniqlagan va xizmat mijozning kutganiga mos keladigan bo'lsa, u sifat deb qabul qilinadi. Mijozlarga xizmat ko'rsatish – bilimli, qobiliyatli va g'ayratli xodimlarning o'zlarining mijozlariga aniqlangan va noma'lum ehtiyojlarni qondiradigan tarzda xizmat ko'rsatish qobiliyati sifatida belgilanadi va natijada ijobiy og'zaki reklama va biznesning rentabellegi oshishiga olib keladi. K.Tapan va Das.Satyabrat so'zlariga ko'ra, mijozlarga xizmat ko'rsatish – bu mijozlarning qoniqish darajasini oshirish uchun mo'ljallangan bir qator faoliyat bo'lib, xizmat mijozlar kutganiga javob beradi, deb aytishgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'riflar berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi [6].

Rossiyalik mutaxassis Y.V. Kolotova tarixiy-madaniy turizmni "mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf-odatlar, uy xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflaydi [6].

I.T. Frolova esa tarixiy madaniy turizmga global miqyosda xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil va vosita sifatida qarab, rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi uchta:

- 1) madaniyat va madaniy merosga oid bilimlarni boyitish;
- 2) madaniyatni muhofaza qilish va qayta tiklash;
- 3) madaniyatlar muloqoti kabi yo'nalishlardan iborat deya hisoblaydi. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari, sifatida quyidagilar qayd etiladi:
 - madaniy-ma'rifiy va ta'limiy;
 - madaniy muhofaza va saqlash;
 - aloqalar o'rnatish va tinchlikparvarlik. G.Karpov. L.Xorovalar esa tarixiy va madaniy turizmni "kishilarning yangi axborot, tajriba va taassurotlarga ega bo'lish uchun madaniy diqqatga sazovor joylar, muzeylar va tarixiy joylar, san'at galereyalari, musiqa va drama teatrlari, konsert maydonchalari, ijrochilik san'ati, klassik qadriyatlar hamda tarixiy merosni aks ettiruvchi mahalliy aholining an'anaviy dam olish hududlari, innovatsion badiiy ijodiyot uylariga tashrif buyurishi" deb hisoblaydilar [6].



Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To'xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro'ziyev, O.Xamidov, N. Ibadul-layev F.Aziztoyeva, B. Mamatov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xususan, N.To'xliyev: "Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) sayyohlik-sayohat (safari) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarga borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaydigan holda jo'nab ketishi tushuniladi" deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi Sh. Ro'ziyev tarixiy-madaniy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda yaratiladigan konsepsiyalar, metodlar va turistik faoliyat subyektlarining o'zaro integratsiyasini amalga oshiruvchi indikativ boshqaruv metodikasini yoritib bergan ^[12].

Iqtisodchi olim O.H. Xamidovning e'tirof etishicha "Turizm murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy obyektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilaydi."

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda turizm iqtisodiyoti bo'yicha mavjud nazariyalar o'rganildi va mamlakatimizdagi uning rivojlantirish jarayonlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil qilishda 2019–2021-yillardagi statistik ma'lumotlar qo'llanildi. Statistik manba sifatida, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot mavzusi doirasida muammoni atroflicha tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, statistik, tizimli va qiyosiy tahlil, PEST tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu sababli, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha ko'plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199 sonli Farmoniga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, qo'riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim.

Shunday qilib, tarixiy-madaniy turizmning hozirgi holatini, uni rivojlantirish istiqbollari va milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish dolzarbdir. Bunda, eng avvalo, "tarixiy-madaniy turizm" tushunchasining mazmunini aniqlash lozim.

Tarixiy va madaniy turizm – bu faol turizmning eng keng tarqalgan turi. U ta'lim va axborot maqsadlariga yo'naltirilgan barcha turizm turlarini o'z ichiga oladi. Bunday turizm dasturlari insoniyatning turli xil tabiiy, tarixiy va madaniy meroslariga qiziqishiga asoslangan. Bunda turistik mahsulot madaniy tajribalar shaklida taklif etiladi. Etnik va etnografik turizmni o'ziga xos tarixiy-madaniy turizm deb hisoblash mumkin, bu o'z maqsadlariga (saqlab qolish, zarar yetkazmaslik) ko'ra, ekologik turizmga yaqin turadi. Mamlakatlar va xalqlar madaniyati turistik qiziqishning asosiy elementlaridan biridir. Turistlarning turli shaharlarga, dunyoning chekka burchaklariga va ularda istiqomat qiladigan xalqlarga bo'lgan qiziqishi sayohat qilishning eng kuchli rag'batlantiruvchisidir. Shuning uchun turizm boshqa madaniyatlar bilan, boshqa xalqlarning tarixi va hayoti bilan, badiiy asarlar bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Boshqa mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlar bilan tanishish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Tarixiy madaniy turizm boshqa dam olish turlariga qaraganda muhim afzalliklaridan biri – u butun yil davomida talabga ega bo'lib, uning sezilarli farqi mavsumiy emasligidir. Ushbu tur yilning istalgan vaqtida dolzarbdir, chunki sayyohlar muzeylarga tashrif buyurish, tarixiy obidalar va mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish uchun ekskursiya qilishlari mumkin. Turistik jozibadorlikni shakllantirish uchun tarixiy-madaniy turizm quyidagi jihatlarini o'z ichiga olishi kerak (1-jadval).

1-jadval: Tarixiy-madaniy turizmning mazmuni¹

Turizm san'ati va adabiyoti	mashhur adabiy asarlar, teatr, kino namoyandalari; haykallar; san'at va hunarmandchilik namunalari, teatrlar, studiyalar va boshqalar
Tarixiy turizm	insoniyat sivilizatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy madaniyat yodgorliklari; qadimiy shaharlar, qadimiy shaharlar xarobalari; harbiy madaniyat yodgorliklari (qal'alar, mustahkam devorlar, janglar va boshqalar)
Arxitektura madaniyati turizmi	me'moriy ansambllar, saroy majmualari, ziyoratgohlar va ibodatxonalar; kichik me'moriy shakllar (binolar, minoralar, arklar, zallar, panteonlar, maqbaralar, yodgorlik g'orlari); gidrotexnik inshootlar (to'g'onlar, kanallar, gidroelektrostantsiyalar); port sanoat arxitekturasi; dam olish arxitekturasi
Turistik mavzuli parklar madaniyati	sun'iy landshaftlar (turar-joylar, sport va dam olish maskanlari, sanoat hududlari, transport tuzilmalari)
Shahar va madaniy turizm	shahar muhiti va shahar madaniyati; shahar panoramalari; landshaft rejalashtirishni tashkil etish
Muzey turizmi	muzeylar, ko'rgazmalar, tarixiy va madaniy tadbirlar va taqdimotlar o'tkazish.


1-jadvalda keltirilgan jihatlar tarixiy-madaniy turizmning mohiyatini ochishi bilan birga, uning o'ziga xos jihatlarini ham yoritib beradi. O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, xalqning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob madaniy merosni asrab avaylashni kuchaytirish sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jahonning ilg'or tajribalarini samarali qo'llash hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda hududlarda mavjud bo'lgan tarixiy hamda arxeologik obyektlarning o'рни muhimdir. Ularning tarixiyligi, hudud tarixida tutgan o'рни hamda saqlanganlik darajasi unga qiziquvchi turistlarning sonini oshishiga yordam beradi. Har qanday tashrif buyuradigan sayyoh uchun bir manzilgohda bir nechta obyektlarning mavjud bo'lishi, uning safar vaqtining davomiyligini uzaytirib beradi. Bu jarayon esa turistik xizmatlarni ko'proq eksport qilish imkoniyatini va yondosh tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki beradi.

Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ma'lum hududda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda shu joyning tarixiy-madaniy obyektlari asosiy o'rinni egallaydi. Lekin ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi obyektlar va yodgorliklar ro'yxatiga kiritiladi. Bunday ro'yxatni YUNESKO har yili aniqlab boradi. Keyingi yillarda O'zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni oqilona tashkil etish va boshqarishni hamda shu sohadagi dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, xalqaro tajribani o'rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta'minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu boradagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini bermogda. Iqtisodiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha tarixiy-madaniy turizmning moddiy merosini boshqarish uchun obyektlar soni, holati, shuningdek, asliga mos obyektlar ya'ni restavratsiya va tamirlash jarayonida o'zgartiril-magan asli saqlanib qolgan ulushi va obyektlarning har xilligini hisobga olish zarur. Obyektlar har xil hajmlarga ega bo'lgani bois, ularni shu belgi bo'yicha tasniflash zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonda 2 mingdan ziyod tarixiy yodgorliklar mavjudligi tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi (1-rasm).

1 Manba: tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi



Quyidagi toifalarni ajratish tavsiya qilinadi ^[10]:

- me'moriy majmualar;
- alohida turgan me'morchilik obyektlari;
- kichik me'moriy shakllar;
- turmush, xo'jalik va ijtimoiy hayot obyektlari.
- turistik biznes korxonalarini o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish ko'rsatkichlari. Ushbu ko'rsatkichlar turistik xizmatlar ko'rsatishga jalb qilingan tashkilotlar o'rtasidagi gorizontaal aloqalarning rivojlanganlik darajasini tavsiflaydi.

Tarixiy turistik obyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni turizm barqaror rivojlanishining asosini belgilab beradi.

Turizm tizimli o'rganish obyekti sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik qismlardan tashkil topib, ko'plab ichki va tashqi aloqalarga egadir.

Ijtimoiy sohaning bir qismi sifatida turizmning vazifasi inson hayotiy kuchini tiklash, ruhiy bosimni yengillashtirish, intellekti va jismoniy darajasini rivojlantirishdir. Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasida "bo'sh vaqtda dam olish huquqi va haq to'lanadigan ta'til huquqi, hamda bu vaqtdan ta'limiy va ko'ngil ochish maqsadida foydalanish uchun sayohatga chiqish – ichki va xalqaro turizmning ne'matlaridir" deb ko'rsatilgan ^[7].

Iqtisodiy yondashuvda turizm o'z ichiga tarixiy-madaniy, rekreatsion va boshqa tashkilotlarning kompleks xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish, maqsadli investitsiyalar kiritish faoliyatini qamrab oluvchi o'ziga xos tarmoq sifatida belgilanadi. Iqtisodiy hodisa sifatida turizm mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, bir vaqtning o'zida unga bog'liqligi nuqtayi nazaridan jiddiy e'tiborga molikdir. Mamlaktimizda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish salohiyatini yuqoriligini e'tiborga olgan holda, iqtisodiy adabiyotlar ma'lumotlar tahlili asosida ^[2,4,5,6,7] turizmning iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarini qayd etish mumkin:

- ish o'rinlarini ko'payishi hisobiga bandlik darajasini oshishi. Rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasiga 3-5% ish o'rinlari to'g'ri keladi;
- turizm o'z rivojlanishi jarayonida bilvosita boshqa tarmoqlarni ham rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi (qurilish, transport, yo'l, oziq-ovqat savdo sanoati va boshqalar);



- turizm industriyasi yuqori o'sish sur'atlariga ega, pandemiya inqirozi oldingi davrda dunyo mamlakatlarida turizmdan tushadigan valyuta tushumlari har yili o'rtacha 8-12%ga o'sgan;
- turizmning "ko'paytiruvchi samarasi", ya'ni turizmga sarflangan mablag'larning yuqori aylanuvchanlikka egaligi;
- milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlaydi"
- xorijiy sarmoyalar jalb etish va chet el valyutasida daromadni keltirishi;
- chet ellarda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy imijini yaxshilaydi;
- milliy parklar va qo'riqxonalar vujudga kelishini va rivojlanishini rag'batlantiradi;
- san'at asarlari va urf-odatlar saqlanishiga xizmat qiladi va boshqalar.

Shuningdek, tarixiy-madaniy turizm rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ayrim salbiy omillarni ham keltirish lozim. Xususan, tarixiy-madaniy obyektlarni saqlash, rekonstruksiya qilish katta investitsiyalarni talab qiladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar kapital tanqisligidan kelib chiqib, ularni saqlab qolish uchun yetarlicha mablag' ajrata olmasligi mumkin. Shuningdek, sohani rivojlanishi bevosita davlat siyosatiga bog'liqdir. Davlatning olib boriladigan oqilona siyosati tarixiy-madaniy turizm sohasini rivojlanishiga, xalqaro hamkorlikni kuchayishiga, sohada innovatsiyalar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanilishiga olib keladi va aksincha nooqilona siyosat turizm obyektlari va yodgorliklari qarovsiz qolishiga, talon taroj qilinishiga olib keladi.

Ko'rinib turganidek, tarixiy-madaniy turizmni rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni PEST tahlili²ni amalga oshirish ushbu sohani rivojlanishi holati haqida to'liq tasavvurni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarixiy-madaniy turizm obidalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etishda, ulardan samarali foydalanish oshirish yo'llari, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash, hamda turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini baholashda resurslarni guruhlarga ajratish hamda ularni saqlash, qayta tiklash faoliyatining indikativ ko'rsatkichlarini aniqlash zarur.

Sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- muzeylar va madaniy meros obyektlariga sifatli va namunali xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va bu orqali ularning obro'sini mustahkamlash;
- mamlakatning tarixiy merosini jahon turistik bozorida namoyish etishda xalqaro ko'rgazma, konferensiya, festival kabi madaniy tadbirlarni tashkil etish;
- arxeologik yodgorliklarning tarixiy madaniy turizm sohasidagi rolini sezilarli darajada oshirish orqali, ularni xorijiy va mahalliy turistlar orasida brend darajasiga yetkazish;
- arxeologik yodgorliklarni qisman (konservatsiya va restavratsiya) qilib muzey ko'rgazmasiga tayyorlash;
- sayyohlar uchun xalq amaliy san'ati markazlarida mahorat darslarini tashkil etishni yo'lga qo'yish bilan milliy hunarmandchilik an'analarini dunyoga tanitish;
- xorijiy turistlarni tarixiy-madaniy obyektlarga tashrifini oshirishda malakali mutaxassislar tomonidan ekskursiya xizmatlarini sifatli tashkil etish;
- tarixiy madaniy turizmga oid turistik axborot markazlari faoliyatini rag'batlantirishda ilmiy-ommabop ma'lumotlarni radio, teleko'rsatuv hamda internet tarmoqlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa qilib, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish nafaqat, madaniy sohani qo'llab-quvvatlashga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatini taqdim eta oladigan sohalardan biri sifatida qarash kerak bo'ladi.

² PEST – bu marketing dastagi bo'lib, sohaga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhitning Siyosiy (Political), iqtisodiy (Economic), ijtimoiy (Social) va texnologik (Technological) jihatlarini aniqlashga qaratilgan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199- farmoni. 2021-yil 6-aprel. //www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. // <https://www.norma.uz>
3. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов Культура народов Причерноморья. – 2002. №35. – С.11-15
4. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Смоленск, 2000. – 224 с.
5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]
6. Карпов Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью. СПб., – 2011. – 268 с. [2.с.135]
7. Королёва Н.В. Имитационное моделирование направлений развития туризма в рекреационных зонах региона. Майкоп, – 2007. – 164 с.
8. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, с. 45]
9. Ro'ziyev Sh. "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi" J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>
10. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. Т.: "Узбекистон миллий энциклопедияси", 2001. – 208с. Стр. – 13
11. Norchayev A. O'zbekistonda covid-19 pandemiyasining turizmga ta'sirini yumshatish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, 2020. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/>
12. Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год. <https://www.interfax.ru/>
13. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

